

ZAMONAVIY MAKTABNING - ZAMONAVIY RAHBAR MISSIYASI

Рано Сериковна Дусенова

Тошкент вилояти

Чирчик шахар

5-мактаб директори

Annotatsiya: Ta'lim muassasalari rahbarlari va o'qituvchilarining muloqot madaniyati, xulq-atvori va notiqlik san'ati ta'lim va tarbiya sifatini oshirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. O'qituvchi rahbarning nutq madaniyati ta'lim jarayonini boshqarishda, shuningdek keng o'quv-tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishda hal qiluvchi va juda muhim ro'l o'yнaydi. O'qituvchining nutq madaniyati nafaqat uning bilim darajasiga, aql-idrokining mantiqiy fikrlashining etukligiga, balki ona tilining boyligidan to'g'ri foydalanish qobiliyatiga ham bog'liq. Maqolada ushbu masalalar bo'yicha fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar va tushunchalar: aloqa va nutq madaniyati, rahbarning shaxsiyati, san'at, ritorika, intuitiv bashorat.

Rahbar pedagogning nutq madaniyati ta'lim jarayonini boshqarishda, keng ko'lamli ta'lim-tarbiya faoliyatini amalga oshirishda hal qiluvchi, g'oyat muhim o'rин tutadi. Pedagog nutqining madaniyligi – uning bilim darjasasi, aql-idrokining mantiqiy fikrlashdagi yetukligi bilan bir qatorda ona-tilining boyligidan foydalana olishiga ham bog'liq.

Til – har bir pedagogning quroli, o'z fikr-munosabatlarining bevosita voqelikka chiqishidir. Donolar ta'kidlaganlaridek, inson aql-zakovati, tafakkuri va ongingining eng boy yutuqlari, teran bilimlar, keng miqyosli ilm-fanlar, otashin his-tuyg'ular nutqda ochiq-oydin, jarangdor va jozibador ifodalanmas ekan, tinglovchiga noma'lum bo'lib qolaveradi. Binobarin, rahbar yoki pedagogning notiqlik vazifasi bayon etiladigan fikrlarni o'quvchi, talaba, tinglovchilar bevosita qabul qilishlari uchun ularga qulayligini inobatga olishga erishishdan iborat. Bu esa notiqlarning o'z fikrini qanday shaklda ifoda qilishiga ham bog'liq.

O'zbekistonda yosh avlodni ma'nан yuksak insonlar qilib tarbiyalash davlat miqyosidagi muhim vazifa darajasiga ko'tarildi. Chunki ma'naviyati boy kishilar yashaydigan mamlakat iqtisodiy, siyosiy jihatdan taraqqiy topadi, bunday jamiyatning kuchli bo'lishi ham muqarrardir. Targ'ibot-tashviqot, ta'lim - tarbiyaga daxldor shaxslar, ayniqsa ta'lim muassasalari rahbarlari o'z faoliyatlarida jonkuyar, tashabbuskor hamda ijodkor bo'lishlari

bu boradagi ishlarning samarasini ta'minlaydigan etakchi omillardan sanaladi. Chunki O'zbekiston birinchi prezidenti Islom Karimov aytganidek, "Ma'naviyat haqida har qancha da'vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga erisholmaymiz, ya'ni, inson qalbiga yo'l topolmaymiz".

Rahbar nutqi tinglovchilarning his-tuyg'ularini uyg'otadigan, ularni qiziqtiradigan, diqqat e'tiborini nutq mavzuiga jalb etadigan bo'lishi lozim. Mavzuni tushunarli va ishonarli qilib bayon etish boshqaruvchi muvaffaqiyatining garovidir. Rahbar yoki pedagogning nutq madaniyati egallashida ona tilidan keyingi asosiy o'rinni badiiy adabiyot egallaydi. Adabiyotlar bilan muttasil ishslash va ularni muntazam o'qib borish notiqning so'z boyligini oshirishi, tasvirli ifodalar, badiiy iboralarni ko'proq egallab olishi, xalq orasida keng tarqalgan adabiy til boyliklarini terib, o'zlashtirib olishiga katta yordam beradi. Badiiy adabiyot notiqni maishiy turmush, ijtimoiy hayot bilan o'zi bilganidan ko'ra chuqurroq tanishtiradi, fikrlash miqyosini yanada kengaytiradi, madaniy saviyasini oshiradi, mantiqiy tafakkur salohiyatini boyitadi.

Xalq oldida tez-tez so'zga chiqib turuvchi rahbar o'z nutqida badiiy tasvirlardan o'rinli foydalanadi, hayotdagi ayrim voqealar, shaxslarni badiiy adabiyot qahramonlari bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladi, natijada uning nutqi jonli, hayotiy, ta'sirli bo'ladi.

Pedagoglar, maktab rahbarlari uchun ibratlil hikmatlardan yana biri shundaki, biror so'z aytishdan avval uning ortidan singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o'ylangan tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko'zlangan maqsadga "keladiganning" oqibati zarur bo'ladi. Bu ixtiyoriy yoki beixtiyor olovga qo'yilgan odamlarning muvaffaqiyatsiz bo'lishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'z-o'zini hurmat qilishni yo'qotishiga olib kelishi mumkin.

Malakali o'qituvchi yoki rahbar ham o'zining madaniyat namunasidan foydalangan holda nutqni o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.

2. Сайдов Ў. Бошқарув ва нотиқлик санъати. – Т.: «Академия», 2010.

3. Бовыкин В. Новый менеджмент. Управление предприятиями на уровне высших стандартов / В. Бовыкин. - М., Экономика, 1997. - 136 с.

4.

Бозина Н.А., Савина Н.М. Теоретические основы

развития профессиональной компетентности руководителей образовательных учреждений / Н.А. Бозина, Н.М. Савина // Инновационные проекты и программы в образовании. - 2013. - № 6. - С. 18-27.

5. Васильева А.С., Вокуева А.С., Николаева А.А. Влияние характерологических особенностей личности педагога на поведение в конфликтной ситуации / А.С. Васильева, А.С. Вокуева, А.А. Николаева // Вестник университета. - 2019. - № 2. - С. 157-163.